

PAPER

O‘ZBEKISTONDA TURIZM: YUTUQLAR VA ISTIQBOL

To‘xtayeva Shahinabonu Shuxrat qizi ¹

¹Buxoro davlat Pedagogika instituti talabasi

* shaxinatuxtayeva20@gmail.com

Abstract

Mazkur maqola O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar va erishilayotgan so‘nggi yutuqlarni atroflicha tahlil qiladi. Maqolada turizm infratuzilmasini yaxshilash, investitsiyalarni jalb qilish, viza rejimini soddalashtirish kabi muhim islohotlar hamda tashrif buyuruvchilar sonining ortishi, yangi yo‘nalishlarning ochilishi kabi natijalar ko‘rib chiqiladi. Unda O‘zbekistonning jahon turizm xaritasidagi o‘rni va kelajakdagi istiqbollari yoritilgan.

Key words: O‘zbekiston turizmi, turizm rivojlanishi, turizm sohasidagi yutuqlar, turizm islohotlari, sayyohlik, madaniy meros.

KIRISH

Markaziy Osiyoning yuragi hisoblangan, buyuk imperiyalarning yuksalishi va tanazzuliga guvoh bo‘lgan, afsonaviy Buyuk Ipak Yo‘lining chorrahasida joylashgan O‘zbekiston qadim zamonlardan beri sayohatchilar, tadqiqotchilar va madaniyat ixlosmandlarini o‘ziga maftun etib kelgan. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi jahon sivilizatsiyasining durdonalari bo‘lgan shaharlar, ularning mahobatli me‘moriy yodgorliklari, noyob an‘analari va xalqimizning samimiy mehmondo‘stligi mamlakatimizning o‘ziga xos jozibasini tashkil etadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘zining ulkan turistik salohiyatini ro‘yobga chiqarish yo‘lida dadil qadamlar tashlamoqda. Turizm sohasi

mamlakat iqtisodiyotining muhim drayveri, valyuta tushumining asosiy manbalaridan biri, yangi ish o‘rinlari yaratish va mintaqalar taraqqiyotini ta‘minlashning kuchli vositasi sifatida e’tirof etilgan. So‘nggi yillarda turizm infratuzilmasini yaxshilash, transport logistikasini soddalashtirish, viza rejimini liberallashtirish, yangi turistik mahsulotlar va yo‘nalishlarni yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar natijasida O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar soni jadal ortib bormoqda.

So‘nggi yillarda turizm milliy iqtisodiyotimizning o‘sish omillaridan biri sifatida boshqa turli tarmoqlarni ham rivojlantirish drayveriga aylandi. Ayniqsa yangi ish o‘rinlari yaratishda ushbu soha beqiyos ahamiyat kasb

Compiled on: October 18, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

etmoqda. O'zbekistonda turizm industriyasi va xizmatini rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e'tibor berilmoqda. Joriy yilning 10 oyi davomida 18 me'yoriy hujjat – Prezidentning 3 farmoni va 6 qarori, hukumatning 9 qarori tasdiqlangani ham fikrimizni isbotlaydi. Sohaning normativ-huquqiy asosi takomillashtirilib, muntazam ravishda tadbirkorlarga soliq imtiyozlari, preferensiya taqdim etilib, milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish uchun sharoit yaratilmoqda, viza tartibi liberallashtirilib, qulay sayyohlik muhiti shakllantirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi yurtimiz sayyohlik salohiyatini targ'ib qilish yo'lida muhim qadamlar tashladi. 2024-yil davomida diyorimizga jami 8,6 million nafar xorijiy sayyoh keldi. Ularga 2,7 milliard dollarlik xizmat ko'rsatildi. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 1,5 barobar ko'p. Yevropa va boshqa mintaqalar hamda qo'shni davlatlardan keluvchilarning o'rtacha xarajati 2022-yilga nisbatan 1,5 barobar oshgan.

Maqsadli xorijiy davlatlardan turizm oqimi sezilarli jadallashdi. Jami miqdorda chegaradosh o'lkalar fuqarolari ulushi 2018 yildagi 87 foizdan 80 foizga tushdi, Ko'kina qit'a va boshqa uzoq davlatlar hisssasi 5,3 foizdan 9,0 foizga ko'tarildi. Sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi 762 yangi subyekt faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida turistik tashkilotlar va turagentlar soni 3581 taga yetdi. Bugungi kunda respublikamiz bo'ylab 3200 gid-ekskursivod ishlayapti. Joriy yilning o'zida ayni raqam 700 taga ortdi.

O'zbekiston turizm salohiyatini Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo-Tinch okeani, Yaqin Sharq, Xitoy va Markaziy Osiyo mintaqalarida keng targ'ib qilish maqsadida "World Media Group", "Blue Sky", "Sky one", "Wanderlust", "Euronews", "BBC", "National Geographic", "CNN" "Travel Tomorrow", "Warner Bros. Discovery", "Saga travel Group" xalqaro mediakorporatsiyalari, shuningdek "Ctrip.com", "Holiday factory", "Voyage Prive" onlayn sayohat platformalari kabi qator xorijiy tashkilotlar va televideniylar bilan shartnoma asosida xalqaro miqyosda mamlakatimiz imiji ilgari surilgani e'tirofga loyiq.

2024 yil dunyoning yetakchi 16 mamlakatida bo'lib o'tgan 18 xalqaro yarmarkada O'zbekiston

milliy turizm stendi bilan ishtirok etdi. 12 davlat – Xitoy, Eron, Tojikiston, Buyuk Britaniya, Malayziya, Singapur, Indoneziya, Kuvayt, Belarus, Vengriya, Janubiy Koreya va Rossiyada "Road show" madaniy va taqdimot tadbirlari o'tkazildi. AQSH, Yaponiya, Germaniya va Xitoyda yurtimiz turizm brendi elchilari va vakillari tayinlandi. 25-26 aprel kunlari "Shahrisabz – Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti turizm poytaxti" xalqaro forumi, "Xiva – 2024 yilda Islom dunyosi turizm poytaxti" shiori ostida joriy yil 31-may - 2-iyun kunlari Xiva shahrida Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar turizm vazirlari XII yig'ilishi yuqori saviyada o'tkazildi. Ilk bor mart, avgust va sentyabr oylarida barcha hududlarda "Ichki turizm yarmarkalari" tashkil qilinib, ichki turizm yo'nalishidagi 1700 ga yaqin tadbirkorlik sub'ekti, 18 000 dan ortiq ishtirokchi to'plandi. Tadbirlar davomida ichki sayohatlar tashkil etish bilan bog'liq 20 milliard so'mlik 1300 shartnoma va bitim imzolandi. Yil boshidan bugungi kunga qadar 20 dan ko'p davlatning 100 ga yaqin ommaviy axborot vositasi vakillari, blogger va inflyuenserlar uchun yurtimiz bo'ylab 24 marta info va press-tur tashkil qilindi.

Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e'lon qilingan "Sayohat va turizmni rivojlantirish indeksi" tadqiqotiga ko'ra, mamlakatimiz 2024-yil "Turizmni rivojlantirish bo'yicha dunyoning eng faol mamlakati" deb topildi. Bu e'tirof mamlakatda xalqaro sayyohlarni jalb qilish va barqaror turizmni rivojlantirishga e'tibor kuchayib borayotganini bildiradi. Londonda bo'lib o'tgan marosimda O'zbekiston nufuzli "Wanderlust Reader Travel Awards 2024" mukofotining "Eng yaxshi rivojlanayotgan yo'nalish" nominatsiyasida g'olib chiqdi. "Russian traveler" jurnali o'tkazgan nufuzli tanlov hay'ati joriy yil O'zbekistonni "MDH mamlakatlari orasida eng yaxshi sayohat yo'nalishi" deb atadi.

Mamlakatimizda turizm sektori tez rivojlanmoqda, xizmat sifati yaxshilanmoqda:

- vizasiz rejim kuchaytirilgan. 90 dan ortiq davlat fuqarolari uchun 30 kungacha vizasiz kirish imkoni mavjud. Turistlarga jarayonni osonlashtirish uchun elektron viza tizimi joriy qilingan;

- ichki transport infratuzilmasi tez rivojlanmoqda. Havo, temir yo'l va avtobus qatnovi yaxshilangan. Taksi va karshering xizmati mavjud. Sayyohlar juda oson va qulay harakatlanadi;

– ko'plab zamonaviy mehmonxona va kurortlar, turizm markazlari ochilgan. Ushbu majmualarda zamonaviy xizmatlar, shuningdek sport zali, restoran va suv havzasi faoliyati yo'lga qo'yilgan;

– O'zbekiston tarixiy va madaniy yo'nalishlar, jumladan o'ziga xos me'moriy yodgorliklarga boy, go'zal tabiatga ega. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlardagi obidalar juda jozibador;

– suvenirlar, mahalliy tovarlar xarid qilish imkoniyati bisyor. Hududlarda ko'plab do'konlar ochilgan. Mahalliy qoliplar, an'anaviy hunarmandlik mahsulotlari keng tarqalgan;

– ekskursiya xizmati rivojlangan. Professional gidlar yetarli, turlar tashkil etilgan. Bu jarayonda sayyohlar tarixiy va madaniy yodgorliklarni, tabiatni tadqiq qilishi mumkin;

– diyorimizda turizmni rivojlantirish uchun raqamli xizmatlar ham keng yo'lga qo'yilgan. Masalan, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali har qanday ma'lumotni olish, tur va xizmatlarga buyurtma berish imkoni bor.

Sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi 762 yangi subyekt faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida turistik tashkilotlar va turagentlar soni 3581 taga yetdi. Bugungi kunda respublikamiz bo'ylab 3200 gid-ekskurovoda ishlayapti. Joriy yilning o'zida ayni raqam 700 taga ortdi. O'zbekiston turizm salohiyatini Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo-Tinch okeani, Yaqin Sharq, Xitoy va Markaziy Osiyo mintaqalarida keng targ'ib qilish maqsadida "World Media Group", "Blue Sky", "Sky one", "Wanderlust", "Euronews", "BBC", "National Geographic", "CNN" "Travel Tomorrow", "Warner Bros. Discovery", "Saga travel Group" xalqaro mediakorporatsiyalari, shuningdek "Ctrip.com", "Holiday factory", "Voyage Prive" onlayn sayohat platformalari kabi qator xorijiy tashkilotlar va televideniya bilan shartnoma asosida xalqaro miqyosda mamlakatimiz imiji ilgari surilgani e'tirofga loyiq.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar va erishilayotgan sezilarli yutuqlar mamlakatning ushbu strategik ahamiyatga ega sektorga berayotgan e'tiborining yorqin dalilidir. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tizimli islohotlar turizm

infratuzilmasini tubdan yaxshilashga, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga va mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Eriшилgan so'nggi yutuqlar O'zbekistonning jozibador sayyohlik manziliga aylanib borayotganligini tasdiqlaydi. Bu yutuqlar nafaqat iqtisodiy o'sishga hissa qo'shmoqda, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy aholi farovonligini oshirish va mamlakatning boy madaniy-tarixiy merosini dunyoga targ'ib qilishda ham muhim rol o'ynamoqda. Kelgusida ham turizm sohasini barqaror rivojlantirish yo'lidagi sa'y-harakatlarni davom ettirish O'zbekistonning global turizm xaritasidagi mavqeini yanada mustahkamlashga va mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyasiga xizmat qilishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz/uz/docs/-6456786>
2. <https://uza.uz/oz/posts/ozbek-turizmi>
3. G. Xidirova Mintaqada turizmni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari - B.: 2018.
4. A.Jo'rayev Turizm salohiyatidan samarali foydalanish yo'nalishlari - B.: 2018